


Toshkent yer usti halqa metro liniyasining birinchi bosqichi qurilishi yakunlandi



Toshkent yer usti halqa metro liniyasining birinchi bosqichi bo'lgan "Do'stlik-2 - Qo'yliq" yo'nalishi qurib bitkazildi. Metroning ushbu uchastkasida 7 ta bekat barpo etilgan. Yangi yo'nalishning uzunligi 11,5 kilometr.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 29-avgust kuni bu yerga tashrif buyurib, jamoatchilik bilan birga poyezdda yurdi.





Aholining talab va ehtiyojlari, poytaxtimizning kelgusi rivojlanishi inobatga olinib, Toshkent shahrida yer usti xalqa metro liniyasi qurilmoqda.


Loyiha besh bosqichda amalga oshirilmoqda. Umumiy uzunligi 54,8 kilometr, 35 ta metro bekati, 2 ta depo va 1 ta texnik ko'rik punkti quriladi.

2019-yilning avgust oyida Toshkent halqa metro liniyasining birinchi bosqichi bo'lgan "Do'stlik-2 - Qo'yliq" liniyasida 2 ming 303 metrlik yangi relslar yotqizilib, dastlabki poyezdlar sinov tariqasida harakatlangan edi.

Ushbu yo'nalish qurilishida jami 341 dona tayanch ustuni, 341 dona temir beton rigellar va har birining uzunligi 26 metr bo'lgan 2 ming 73 dona balka o'rnatilgan.

Obyekt qurilishida 3 500 dan ortiq ishchi va mutaxassislar hamda 150 ta texnika va mashina-mexanizmlar ishtirok etdi.

Yangi qurib bitkazilgan bekatlar yo'lovchilarga qulaylik yaratuvchi zamonaviy texnologiyalar, yo'lkirani elektron to'lash imkonini beruvchi turniketlar hamda eskalator bilan jihozlangan. Ikkinchi qavatdagi bekatlarning har biriga imkoniyati cheklangan yo'lovchilar uchun maxsus liftlar ham o'rnatilgan.





E'tiborlisi, har bir bekat milliy me'morchilik uslubiga xos tarzda qurilib, ko'rinishi va bezatilishi jihatidan bir-birini takrorlamaydi. Ishlatilgan zamonaviy qurilish materiallari bekatlarga o'zgacha chiroy bag'ishlamoqda.

Masalan, Tuzel hududidagi 3-bekak aholi gavjum joyda, avtomobillar chorrahasida joylashgan. Ushbu bekatda tushib chiqadigan yo'lovchilar oqimi nisbatan ko'proq bo'lishi kutilmoqda. Ikki qavatdan iborat bekatning birinchi qavatida ishchi-xodimlar uchun ma'muriy hamda tibbiy xonalar va kassa qurilgan. Yo'lovchilar kirib chiqishi, maxsus turniketdan o'tishi birinchi qavatda amalga oshiriladi. Ikkinchi qavat esa perron qismi bo'lib, uning bir tomonidan yo'lovchilarga qulay bo'lishi uchun yangi eskalator, ikkinchi tomoniga esa imkoniyati cheklangan yo'lovchilar uchun maxsus lift o'rnatilgan. Perron qismi zamonaviy yoritkichlar bilan bezatilgan. Bekat ichida Toshkent metropoliteni xaritasi, perronda esa shahar tashqarisiga chiqish uchun ko'chalar nomini ko'rsatuvchi ma'lumotlar belgisi qo'yilgan.

Perrondan poyezdga chiqish qismiga ko'zi ojizlar uchun maxsus bo'rttirilgan plitalar yotqizilgan. Bekatning asosiy ikki tomoni quyosh nurini kam o'tkazadigan maxsus oynalar bilan qoplangan. Perronga kirib-chiqish hududlarida ko'rkam va rangli kafellardan foydalanilgan. Bekat atrofi va hududi obodonlashtirilib, zamonaviy yoritgichlar o'rnatilgan, yo'laklarga uzoq muddatga chidamli ko'rkam bruschatkalar, marmar toshlari terilgan. Hududga Toshkent iqlimiga moslashtirilgan archalar ekilgan, avtomobillar turargohi qurilgan.

3-bekakdan so'ng Iltifot hududidagi 4- hamda Rohat hududidagi 5-bekak keladi. Poytaxtimizning sharqiy darvozasiga kirish hududida joylashgan ushbu ko'rkam bekat orqali shahrimiz aholisi va mehmonlari Toshkentning markaziy va chekka hududlariga qisqa fursatda xavfsiz yetib borish imkoniga ega bo'ladi.

Yangiobod hududidagi 6-bekak bir qavatdan iborat bo'lib, Rohat yo'nalishidan kelganda estakadalar o'z o'rnini yerga bo'shatib beradi. Chunki, "Quyuv-mexanika zavodi" korxonasi bilan shaharning Yashnobod tumani hududi oralig'ida Chirchiq daryosi o'tganligi uchun temir yo'l ko'prigi qurilgan. Shu bois loyiha

doirasida 6-bekat bir qavatdan iborat bo'lib, Qo'yliq yo'nalishi bo'ylab qurilish jarayoni temir yo'l ko'prigidan o'tishi uchun pastdan harakatlanish loyihasi bo'yicha amalga oshirildi. Shundan so'ng yana estakada shaklida Qo'yliq bozorigacha qurilish jarayoni amalga oshirildi. Qo'yliq bozori hududida yo'l o'tkazgich va avtomobil yo'llari mavjudligi sababli metro yo'nalishi Qo'yliq hududiga yaqinlashgach, yer orqali yo'l o'tkazgichdan o'tish masalasi hal etildi. Shu bois 7-bekat ham bir qavatdan iborat bo'ldi.





Manba